

ZAMONOVIIY O'LCHOV VOSITALARINI SERTIFIKATLASHTIRISHGA DOIR XALQARO STANDART MEYORLARI.

Shertaylaqov G'.M.

Jizzax politexnika instituti, dotsent

Mamayaqubova M.N.

Jizzax politexnika instituti,, 1-kurs magistranti

Annotatsiya. O'lchov vositalari yoki mahsulotlar jarayonining, to'g'rilovchi amallarni talab qiladigan barcha aniqlangan nomuvofiqliklari tegishli bo'limlar yoki jarayonlar rahbarlari tomonidan tegishli shaklda STPH-03-Sh3 bo'yicha ro'yxatga olinishi talab qilinadi. Nomuvofiqlik sabablarini ularni qaytarilishini oldini olish uchun bartaraf qilishga qaratilgan to'g'rilovchi amallarni aniqlash va bajarish usullarini aniqlash, shuningdek to'g'rilovchi amallarni samarali joriy qilish uchun tegishli vazifalarni ishlab chiqish rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: sertifikat, protsedura hujjati, sifat tizimi, ichki audit, menedjment, faoliyati, iste'molchi, shikoyat, jarayon, mutaxassis, nomuvofiqlik.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТНЫЕ КРИТЕРИИ СЕРТИФИКАЦИИ СОВРЕМЕННЫХ СРЕДСТВ ИЗМЕРЕНИЙ.

Шертайлаков Г.М.

Доцент Джизакского политехнического института

Мамаякубова М.Н.

Магистр 1-го курса Джизакского политехнического института

Аннотация. Все выявленные несоответствия измерительных приборов или производственных процессов, требующие корректирующих действий, должны быть зафиксированы соответствующими отделами или руководителями процессов в надлежащей форме в соответствии с STPH-03-Sh3. Она играет роль в выявлении и реализации корректирующих мер, направленных на устранение причин несоответствий и предотвращение их

повторного возникновения, а также в разработке соответствующих задач для эффективного осуществления корректирующих мер.

Ключевые слова: сертификат, технологический документ, система качества, внутренний аудит, управление, деятельность. потребитель, жалоба, процесс, эксперт, несоответствие.

INTERNATIONAL STANDARD CRITERIA FOR CERTIFICATION OF MODERN MEASURING INSTRUMENTS.

Shertailakov G.M.

Associate Professor of the Jizzakh Polytechnic Institute

Mamayakubova M. N.

1st year Master's degree from Jizzakh Polytechnic Institute

Abstract. All identified non-conformities of measuring instruments or product processes that require corrective actions are required to be recorded by the relevant departments or process managers in the appropriate form according to STPH-03-Sh3. It plays a role in identifying and implementing corrective actions aimed at eliminating the causes of nonconformities to prevent their recurrence, as well as developing appropriate tasks for the effective implementation of corrective actions.

Keywords: certificate, technological document, quality system, internal audit, management, activity, consumer, complaint, process, expert, non-conformity.

Ushbu jarayon sifat menedjmenti tizimi jarayonlarining barcha aniqlangan nomuvofiqlari, mahsulot nomuvofiqliklari, shuningdek iste'molchilar shikoyatlari va e'tirozlariga qo'llaniladi. Ushbu jarayon korxonani barcha jarayonlarida qo'llaniladi. Nomuvofiqlik sabablarini ularni qaytarilishini oldini olish uchun bartaraf qilishga qaratilgan to'g'rilovchi amallarni aniqlash va bajarish usullarini aniqlash, shuningdek to'g'rilovchi amallarni samarali joriy qilish uchun vazifalarni ishlab chiqish. Korxona tomonidan yetkazib berilgan mahsulotga, uning

sifati yoki yetkazib berish shartlariga nisbatan qoniqmaslikni bildiradigan, iste'molchining og'zaki yoki yozma murojati ham qabul qilinadi.

Nomuvofiqliklar quyidagilar natijasida aniqlanishi mumkin:

- sifat tizimini ichki va tashqi auditlarni o'tkazish;
- sifat tizimi jarayonlarini faoliyatini tahlilari va ularni samaradorligini aniqlash;
- sifat tizimining amaldagi va ishlab chiqilayotgan hujjatlarini tahlili;
- mahsulot ishlab chiqarilishini tahlili;
- iste'molchilarni qoniqishini tahlili;
- rahbariyat tomonidan tahlil;
- iste'molchilar shikoyatlarini kelib tushishi.

Mahsulot yoki jarayonning, to'g'rilovchi amallarni talab qiladigan barcha aniqlangan nomuvofiqliklari tegishli bo'limlar yoki jarayonlar rahbarlari tomonidan tegishli shaklda (STPH-03-Sh3) ro'yxatga olinishi kerak. Jarayon rahbari yoki u tomonidan tayinlangan ma'sul shaxs to'g'rilovchi amallarni o'tkazish zaruriyatini belgilashi kerak. Ichki audit natijasida aniqlangan barcha nomuvofiqliklar, STPH-03-2021 protsedurasida ko'zda tutilgan shakldagi (STPH-03-Sh3) nomuvofiqliklar to'g'risidagi bayonnomalarda ro'yxatga olinadi. Bayonnomalarni rasmiylashtirish uchun korxona ichki auditorlari javobgar hisoblanadi. Tashqi auditlar natijasida aniqlangan barcha nomuvofiqlar tashqi auditorlar tomonidan, tashqi auditni o'tkazgan tashkilot tomonidan o'rnatilgan shakllarda ro'yxatga olinadi. Iste'molchilarning barcha yozma shikoyatlari, e'tirozlari raxbar yordamchisi tomonidan kirish hujjatlari jurnalida ro'yxatga olinishi va raxbarga ko'rib chiqish uchun berilishi kerak. Iste'molchining shikoyati og'zaki shaklda kelib tushganda, shikoyatni qabul qilgan shaxs iste'molchi shikoyati to'g'risidagi hisobotni (STPH-03-Sh3) t'yldiradi va uni raxbarga ko'rib chikish uchun beradi. Raxbar tomonidan ko'rib chiqilgan iste'molchilarning shikoyatlari, e'tirozlari javobgar shaxsga o'rganib chiqish va shikoyatlar, e'tirozlarni bartaraf qilish uchun tegishli choralar ko'rish uchun beriladi. Javobgar

shaxs tomonidan iste'molchilarning shikoyatlari, e'tirozlari tegishli jarayonlar mutaxassislari bilan tahlil qilinadi va shikoyatni keltirib chiqargan sabablarni va nomuvofiqliklarni bartaraf qilish uchun to'g'rilovchi amallarni aniqlashlari kerak. Javobgar shaxs tomonidan korxona rahbariga shikoyatlar, e'tirozlarni bartaraf qilish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida axborot beriladi. Rahbariyat tomonidan tahlillar natijasida aniqlangan nomuvofiqliklar yig'ilish bayonnomasida qayd qilinadi va bayonnoma asosida to'g'rilovchi amallarni o'tkazish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ismatullaev P.R., Abdullaev A.X., Qodirova SH.A., A'zamov A.A., Miralieva A.Q. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlash. Ma'ruzalar matni. TDTU 1999 y.

2. Abdullaev A.X. Qodirova SH.A. Metrologiya, standartizatsiya i sertifikatlash. Uchebnoe posobie. TGTU 2003g.

3. Мухаммадиев Б. С. МЕТРОЛОГИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОИЗВОДСТВА В МАШИНОСТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ //Экономика и социум. – 2025. – №. 11-2 (138). С. 872-875.

4. Мухаммадиев Б. С., Шукуров С. У. ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ДАТЧИКОВ В ПРОИЗВОДСТВЕ //Экономика и социум. – 2025. – №. 9-1 (136). – С. 680-684.

5. Saparovich M. B., Akbarovna K. M. O'LCHASH ISHLARIDA INTELLEKTUAL DATCHIKLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 48-55.

6. Saparovich M. B., Akbarovna K. M. O'LCHASH ISHLARIDA INTELLEKTUAL DATCHIKLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 48-55.